



## SOLIQLAR VOSITASIDA KORXONALAR INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH AMALDAGI MEXANIZMI MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI XUSUSIDA

*Ilyasova Barno Axmadovna*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqlar tortish" kafedrasida o'qituvchisi*

*Toshkent, O'zbekiston. Email: [barno.ilyas8186@gmail.com](mailto:barno.ilyas8186@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0007-1300-6822*

## THE PROBLEMS OF THE CURRENT MECHANISM OF INCREASING THE ACTIVITY OF ENTERPRISES INVESTI PROCESS BY MEANS OF TAXES AND WAYS TO SOLVE THEM

*Ilyasova Barno Axmadovna*

*Independent researcher of the International University of Chemistry,*

*Tashkent Lecturer of the Department of "Taxes and Taxation"*

*of the Tashkent State University of Economics*

*Tashkent, Uzbekistan. Email: [barno.ilyas8186@gmail.com](mailto:barno.ilyas8186@gmail.com)*

*ORCID: 0009-0007-1300-6822*

**Annotasiya:** Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning iqtisodiy platformasi va istiqboldagi soliq siyosati doirasida korxonalar investitsion faolligini soliqlar vositasida rag'batlantirish amaliyotini takomillashtirish vazifasi qo'yilayotir. Bu vazifaning qo'yilishi korxonalar investitsion faolligini soliqlar vositasida rag'batlantirish amaliyotida qator muammolarning mavjudligi, uni isloh qilish va investitsion faollikni soliq rag'batlari (imtiyozlari) orqali oshirishning samarali modellarini yaratishni qamrab oluvchi mavjud konseptual qoidalar munozaraliligi bilan bog'liq bo'lib, korxonalarda investitsion faollikni oshirishga soliq dastaklarining samarali usul va vositalaridan foydalanish masalasiga oydinlik kiritishni talab qiladi. Mazkur omillarni inobatga olgan holda maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiy platformasida soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish amaldagi mexanizmiga oid

muammolar va ularni hal etish yo'llariga oid muaallifning tavsiyalari ko'rib chiqilgan.

Maqolada korxonalar investitsion faolligini soliqlar vositasida rag'batlantirish amaliyotini boshqarish samarali tadbirlariga yangicha yondashuv zarurligi asoslab berilgan va ushbu yangicha yondashuvning shartlari (Yangi O'zbekistonda davlat soliq siyosatining konseptual asoslari doirasida rivojlanish istiqbollari inobatga oluvchi korxonalar investitsion faolligini soliqlar vositasida rag'batlantirish amaliyotini kompleks, yaxlit va tizimli tarzda o'rganish va uning bosh prizmasida "natijadorlikka asoslangan, raqamlashtirilgan va maqsadli fiskal siyosat yuritish asosida imtiyozlarni aniq natijaga (KPI) bog'lash, raqamli monitoring va "investitsiyaviy soliq krediti" kabi zamonaviy dastaklarni qo'llash"ni ta'minlash yotishi) ochib berilgan.

Shu bilan birga maqolada hozirgi zamon sharoitida soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish

amaldagi mexanizmida soliq rag'batlari javob berishi lozim asosiy talablar (natijaga yo'naltirilganlik (Performance-based) - imtiyozlar korxonalar tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari, eksport hajmi yoki innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi aniq ko'rsatkichlar bajarilgandagina taqdim etiladi; tarmoqli va manzilli yondashuv - imtiyozlar barcha uchun emas, balki iqtisodiyotning "drayver" sohalari (masalan, yashil energiya, yuqori texnologiyalar, to'qimachilik klasterlari) uchun beriladi; shaffoflik va raqamlashtirish - soliq imtiyozlarini qo'llash jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan va inson omilisiz, elektron hisobvara-fakturalar va AI (sun'iy intellekt) tahlili asosida amalga oshirilishi kerak; muddatlilik - har bir imtiyoz aniq amal qilish muddatiga ega bo'lib, uning samaradorligi muntazam baholab boriladi, samara bermagan imtiyozlar bekor qilinadi) sharhlab berilgan.

Nihoyat, maqolada, soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish amaldagi mexanizmini rivojlantirishning asosiy istiqbollari (soliq yukini optimallashtirish va barqarorlikni kafolatlash - asosiy soliq stavkalarini barqaror saqlash, soliq hisobotlarini soddalashtirish; investitsiya va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi imtiyozlar - jadallashgan amortizatsiya huquqi, investitsion soliq krediti, elektron tijorat va innovatsiyalar; hududiy va tarmoqlararo investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish - erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), hududlarni 4-5-toifaga ajratish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash; soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va shaffoflik - QQSni tezlashtirilgan qaytarish, elektron shakldagi hisobotlar; kichik va o'rta biznesni investitsiya faoliyatiga jalb qilish - aylanmadan olinadigan soliq, tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar) bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiyalar, investitsion faollik, korxonalar investitsion salohiyati, soliqlar, soliqlar orqali rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish yo'llari, soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish mexanizmi muammolari, soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish mexanizmi muammolarini hal etish yo'llari.

**Abstract.** Currently, within the framework of the economic platform of New Uzbekistan and the future tax policy, the task is set to improve the practice of stimulating the investment activity of enterprises through taxes. The setting of this task is associated with the existence of a number of problems in the practice of stimulating the investment activity of enterprises through taxes, the inconsistency of the existing conceptual rules covering its reform and the creation of effective models for increasing investment activity through tax incentives (privileges), and requires clarification of the issue of using effective methods and tools of tax levers to increase investment activity at enterprises. Taking into account these factors, the article considers the problems of the current mechanism for increasing the investment activity of enterprises through taxes in the economic platform of New Uzbekistan and the author's recommendations on ways to solve them.

The article substantiates the need for a new approach to effective measures to manage the practice of stimulating the investment activity of enterprises through taxes and reveals the conditions for this new approach (a comprehensive, holistic and systematic study of the practice of stimulating the investment activity of enterprises through taxes, taking into account the development prospects within the framework of the conceptual foundations of state tax policy in

*New Uzbekistan, and its main objective is to ensure "binding benefits to specific results (KPI) based on a performance-based, digitized and targeted fiscal policy, digital monitoring and the use of modern mechanisms such as "investment tax credit").*

*At the same time, the article comments on the main requirements that tax incentives must meet in the current mechanism for increasing the investment activity of enterprises through taxes (performance-based - benefits are provided only when specific indicators are met, such as new jobs created by the enterprise, export volume, or the introduction of innovative technologies; sectoral and targeted approach - benefits are provided not for everyone, but for "driver" sectors of the economy (for example, green energy, high technologies, textile clusters); transparency and digitalization - the process of applying tax benefits should be fully automated and without human intervention, based on electronic invoices and AI (artificial intelligence) analysis; term - each benefit has a specific validity period, its effectiveness is regularly assessed, and ineffective benefits are canceled).*

*Finally, the article outlines the main prospects for developing the current mechanism for increasing the investment activity of enterprises through taxes (optimizing the tax burden and ensuring stability - maintaining stable basic tax rates, simplifying tax reporting; incentives to encourage investment and innovation - accelerated depreciation rights, investment tax credit, e-commerce and innovation; increasing regional and cross-sector investment attractiveness - free economic zones (FEZ), division of territories into 4-5 categories, support for investment projects; digitization and transparency of tax administration - accelerated VAT refund, electronic reporting; attracting small and*

*medium-sized businesses to investment activities - turnover tax, equal opportunities for entrepreneurs).*

**Keys words:** *ways to solve the problems of the cost of property of individuals, property tax from individuals, the practice of property tax from individuals, the problems of the practice of property tax from individuals, the problems of the practice of property tax from individuals.*

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati korxonalar istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili bo‘lib xizmat qiladi. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali korxonalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturida: markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o‘zlashtirishning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari 2 025 200 mlrd. so‘mga etkazishni, shu jumladan 714 278 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilishining manzilli dasturi ko‘rsatilgan”[1]. Hozirda soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish masalasi 2022-yil 28 yanvardagi №60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi[2]da, hamda 2023-yil 11 sentyabrdagi №PF-158-sonli Farmoni bilan

tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" Strategiyasi[3]da muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlarni va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish amaliyoti tadbirlarini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etishni va uning samarali mexanizmlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotimizda korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish zarurligini va shu jihatdan, mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgiladi.

**Material va metod.** Keyingi yillarda matbuotdagi chiqishlar va mualliflarning tadqiqlarida korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish amaliyoti umumiy tarzda berilmoqda, biroq Yangi O'zbekistonda davlat investitsiya siyosati istiqbollari va soliq tizimi modernizatsiyasi yangi talablari asosida mazkur amaliyot muammolari va ularni hal etish yo'llari xususida aniq tavsiyalar berilmagan.

Xorijiy mualliflardan John H.Dun o'zining "eklektik paradigma" (OLI-model) nazariyasi orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda joylashuv (location) omillarini, jumladan, soliq tizimining muhimligini asoslab bergan[4].

Richard Musgrave soliq siyosatining iqtisodiy o'sish va investitsiyalarga ta'sirini o'rgangan. U to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) mamlakatga nafaqat texnologiya, balki soliq tushumlarini ham olib kelishini ta'kidlagan[5].

Stephen Bond va Lawrence Samuelson soliq ta'tillarini (tax holidays)

investorlar uchun davlat tomonidan beriladigan muhim signal sifatida talqin qilishgan [6].

Stefan Van Parys va Sebastian James investitsiya muhiti omillari va soliq stimullarining investitsiya oqimlariga ta'sirini empirik baholashgan [7].

MDH mamlakatlari olimlaridan D.B.Volkov "iqtisodiy o'sish investitsiya omilini takomillashtirish va modernizatsiya sharoitida iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari masalalari"ni o'rgandi[11].

D.V.Maslovaning tadqiqoti "qo'shimcha qiymat taqsimlanishini optimallashtirish orqali iqtisodiy o'sish investitsion ta'minoti yaxshilanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish metodologiyasi" masalalariga bag'ishlandi[12].

Yu.A.Steshenko ta'kidlashicha, "... o'rta va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarida investitsion faollikni rag'batlantirish uchun soliq vositalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim"[13].

K.V.Novoselov o'z tadqiqotida "2020-2025 uchun Rossiyada investitsion xavfsizlikni ta'minlashning byudjet va soliq munosabatlarini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar" strategik Yo'l xaritasi" ni ishlab chiqdi[14].

Mahalliy mualliflarimizdan Sh.A.Toshmatov o'z tadqiqotida "korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolarini tizimli ravishda o'rgangan. Uning ishlarida soliq tizimining rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish orqali investitsion muhitni yaxshilash masalalari ilgari surilgan[15].

N.Ashurova barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilib, soliq imtiyozlarining

O'zbekistondagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sirini tadqiq etgan. Olima soliq ta'tillari, stavkalar va chegirmalarning investitsion qarorlarga ta'sirini ham o'rgangan[16].

I.Niyazmetov soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlashda uning ichki hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi rolini ham o'rgangan. Uning tadqiqotlarida soliq tizimining investitsion jozibadorlikni oshirishdagi strategik ahamiyati ta'kidlanadi[17].

X.Zaripov korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliq imtiyozlari ta'siri va investitsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni taklif etgan [18].

**Ilmiy muammoning qo'yilishi.** O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot, faol investitsiya siyosati, soliq ma'muriyatchiligi samarali usul va vositalarini hayotga tatbiq etish, davlat iqtisodiy platformasida korxonalar investitsion faolligini oshirish ahamiyatining oshib borayotganligi, korxonalar investitsion faolligi o'sishini rag'batlantirishni kafolatlash, korxonalar investitsion faolligi o'sishini soliq imtiyozlari tizimi orqali rag'batlantirish, davlat investitsiya siyosati va soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollarda korxonalar investitsion faolligini rag'batlantirish amaliyotida mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va ularni optimallashtirish ahamiyatining o'sganligini inobatga olgan holda davlat ishtiroki mavjud real sektor korxonalarida investitsion faollikni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish amaliyotiga oid muammolarni aniqlash imkonini berdi:

1. Mamlakatimizda innovatsion taraqqiyotni rag'batlantirishga soliq rag'bat(imtiyoz)lari va preferensiyalar

berishga etarli e'tibor berilmasligi natijasida korxonalar investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolining pasayishi.

2. Davlat ulushi mavjud korxonalarning investitsiya faolligining soliq omillarini tahlil qilish va moliyaviy holat reytingini baholash hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos tarzda moliyaviy o'lchami bo'yicha renking o'rinlarini aniqlash tadbirlari amalga oshirilmaligi.

3. Davlat ishtirokidagi korxonalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va ulardan foydalanishdagi soliq rag'batlarining samaradorligini kompleks usulda aniqlash amaliyoti va uslubiyotining yo'qligi.

4. Aksariyat holatlarda soliqlar vositasida korxonalarning investitsiya faolligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida ichki soliq nazoratini o'tkazmasligi.

5. Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishda biznes uchun soliq stavkalari va ayniqsa QQS stavkasi oshib borishidek xavfning mavjudligi.

**Natijalar.** Izlanish jarayonida biz Yangi O'zbekiston iqtisodiy platformasida soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish amaldagi mexanizmining ayrim muammolari va ularni hal etishga oid quyidagi taklif va tavsiyalarimizni berdik, ularning amaliyotga joriy etilganligidan olingan samara O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2026-yil 6-fevraldagi № 05-05 00100-sonli ma'lumotnomasi asosida tegishli tarzda ijobiy baholandi:

1. Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish omili sifatida innovatsion taraqqiyotni

rag'batlantirishga soliq rag'batlari va preferensiyalarini berishga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion

rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 307-sonli qarorida o'z aksini topgan.

### 1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish omili sifatida innovatsion taraqqiyotni rag'batlantirishga soliq rag'batlari va preferensiyalarini berish tadbirlari haqida ma'lumot\*

T/r	Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2026(p)
1.	Yuridik shaxslar soni, ta	523 857	566 146	570 385	520 653	482400	471700
2.	Yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlaridan foydalanish holatlari soni, ta	104 057	195 884	211 926	260 886	265789	267865
3.	Yuridik shaxslardan soliq tushumlari, trln.so'm	115,41	130,14	147,78	171,57	196,8	234,5
4.	Yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari summasi, trln.so'm	43,7	73,0	69,8	72 ,6	75,4	76,9
5.	«Inno texnopark» MChJ va uning rezidentlariga, IT-park rezidentlariga, «Yashnobod» innovatsiya texnoparki rezidentlariga berilgan imtiyoz va preferensiyalar hisobiga innovatsion rivojlanish maqsadlarida qolgan mablag'lar, mlrd.so'm	-	89,5	174,5	239,8	254,9	82,1

\*O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2021-2025. –T.:2026, Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2026 yillarda yuridik shaxslar soni 52157 ta (471700-523857)ga kamaygan, biroq yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlaridan foydalanish holatlari soni 163808 ta (267865-

104057) ga ortgan, yuridik shaxslardan soliq tushumlari 119,09 trln.so'm (234,5-115,41)ga ortgan, yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari summasi ham imtiyozdan foydalanish

holatlari o'rganilgan bo'lsa 33,2 (76,9-43,7) trln.so'mga oshgan, imtiyoz berilgan muddat, ya'ni 2022-yil avgustidan 2025-yil avgustigacha) "Inno texnopark" MChJ va uning rezidentlariga, IT-park rezidentlariga, "Yashnobod" innovatsiya texnoparki rezidentlariga berilgan imtiyoz va preferensiyalar hisobiga innovatsion rivojlanish maqsadlarida qolgan mablag'lar 758,7 (89,5+174,5+239,8+254,9) mlrd.so'mni tashkil etgan.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi bilan 2022-yil 1-avgustdan boshlab "Inno texnopark" MChJ va uning rezidentlariga, IT-park rezidentlariga, "Yashnobod" innovatsiya texnoparki rezidentlariga berilgan imtiyozlar (ijtimoiy soliqdan tashqari) va preferensiyalar (2022-yil 1-avgustdan boshlab 2025-yil 1-avgustga

qadar aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi) hisobiga 2022-2025 yillarda soliq to'lovchilar ixtiyorida innovatsion rivojlanish maqsadlarida ishlatish uchun mablag'lar qolishi ta'minlandi.

2. Davlat ulushi mavjud korxonalarining investitsiya faolligining soliq omillarini tahlil qilish va moliyaviy holat reytingini baholash hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos tarzda moliyaviy o'lchami bo'yicha renking o'rinlarini aniqlashga kompleks yondoshuvga oid taklif "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan 2030 yilgacha mo'ljallangan investitsiya dasturida yangi talablar asosida korxonalar faoliyatini tahlil qilish, uning investitsion faolligi istiqbollari baholashda foydalanildi.

## 2-jadval.

**O'zbekistonda davlat ulushi mavjud korxonalarining investitsiya faolligining soliq omillarini tahlil qilish va moliyaviy holat reytingini baholash hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos tarzda moliyaviy o'lchami bo'yicha renking o'rinlarini aniqlashga kompleks yondoshuv tadbirlari haqida ma'lumot**

T/r	Ko'rsatkichlar	2023	2024	2025	2026(r)	2028(r)	2030(r)
1.	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori, trln.so'm	56,6	107,1	113,8	125,0	142,0	160,0
2.	Davlat ma'lumotlariga ko'ra davlat ulushi mavjud korxonalar (davlat korxonalari, AJ va MChJlar) soni, ta	1587	1525	1494	968	662	397
3.	Xalqaro renking o'rniga ega bo'lgan davlat ulushi mavjud korxonalar soni, ta	7	7	8	13	18	25
4.	Davlat ulushi mavjud korxonalardan qimmatli qog'ozlarining jahon fond birjalari listingiga	3	3	4	7	13	18

	kiritilishiga erishganlari soni, ta						
5. a)	“O‘zbekneftgaz” AJda jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar: -umumiy hajmi, mln. AQSh doll.	197,0	504,6	735,7	765,1	812,8	940,0
b).	-o‘z mablag‘lari ulushi,%	13,2	13,5	13,7	13,9	14,3	15,5
6.	“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan foyda solig‘i, mlrd.so‘m	312,4	341,8	416,0	431,8	512,1	543,7

\*O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2023-2025. –T.:2026; “O‘zbekneftgaz” AJning “2022-2025” yillarga hamda “2026-2030” yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

2-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2023-2030 yillarda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 103,4 trln. (160-56,6) so‘mga ortishi, Davlat ma‘lumotlariga ko‘ra, davlat ulushi mavjud korxonalar (davlat korxonalari, AJ va MChJlar) soni 1190 (397-1587) taga kamayishi, xalqaro rangking o‘rniga ega bo‘lgan davlat ulushi mavjud korxonalar sonining 18 ta (25-7)ga ko‘payishi, davlat ulushi mavjud korxonalardan qimmatli qog‘ozlarining jahon fond birjalari listingiga kiritilishiga erishganlari sonining 15 ta (18-3)ga ortishi, “O‘zbekneftgaz” AJ da jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar umumiy hajmining 743 mln. AQSh doll. (940-197)ga ortishi, o‘z mablag‘lari ulushining esa 2,3 foiz (15,5-13,2) ga ortishi, “O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan foyda solig‘i miqdorining esa 231,3 mlrd.so‘m (543,7-312,4)ga ortishi kutilmoqda.

Ushbu takliflar davlat ulushi mavjud bo‘lgan kompaniyalar moliyaviy reytingini muntazam baholab borish asosida ularning raqobatbardoshlik va moliyaviy o‘lchami

darajalarini oshirishga qaratilgan strategiya va biznes-rejalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan.

3. Davlat ishtirokidagi korxonalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va ulardan foydalanishdagi soliq rag‘batlarining samaradorligini kompleks usulda aniqlashga asoslangan model bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarorida o‘z aksini topgan hamda “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibidagi davlat ishtirokidagi korxonalar strategik biznes rejasida inobatga olingan. Mazkur taklifda iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida korxonalar investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va tarmoqni diversifikatsiya qilishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmlarini kengaytirishning soliq omillari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berildi.

**3-jadval.**

**O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari va ulardan foydalanishdagi soliq rag‘batlarining samaradorligini kompleks usulda aniqlashga asoslangan model bo‘yicha tadbirlar haqida ma‘lumot\***

T/r	Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2028(r)	2030(r)
1.	Davlativ ma‘lumotlariga ko‘ra davlat ulushi mavjud korxonalar (davlat korxonalari, AJ va MChJlar) soni, ta	1587	1525	1494	968	662	397
2.	Davlat ishtirokidagi korxonalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar, trln.so‘m	79,65	93,93	107,53	125,35	142,1	154,3
3.	Davlat ishtirokidagi korxonalardan soliq tushumlari, trln.so‘m	69,2	80,7	93,1	109,8	128,0	152,4
4.	Davlat ishtirokidagi korxonalarga soliq imtiyozlari bo‘yicha ular ixtiyorida qolgan mablag‘, trln.so‘m	28,1	33,2	42,6	45,9	56,1	60,8
5.	“O‘zbekneftgaz” AJ da jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va kreditlar umumiy hajmi, mln. AQSh doll.	197,0	504,6	735,7	765,1	812,8	940,0
6.	“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan foyda solig‘i, mlrd.so‘m	312,4	341,8	416,0	431,8	512,1	543,7
7.	“O‘zbekneftgaz” AJ da foyda solig‘idan imtiyozlar bo‘yicha ular ixtiyorida qolgan mablag‘, mlrd.so‘m	62,1	73,3	84,8	97,4	112,9	116,4

\*O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2023-2025. –T.:2026; “O‘zbekneftgaz” AJning “2022-2025” yillarga hamda “2026-2030” yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2023-2030 yillarda, Davlat ma'lumotlariga ko'ra, davlat ulushi mavjud korxonalar (davlat korxonalari, AJ va MChJlar) sonining 1190 (397-1587)taga kamayishi, davlat ishtirokidagi korxonalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining esa 74,65 trln.so'm (154,3-79,65)ga ortishi, davlat ishtirokidagi korxonalardan soliq tushumlarining 83,2 trln.so'm (152,4-69,2)ga ortishi, davlat ishtirokidagi korxonalarga soliq imtiyozlari bo'yicha ular ixtiyorida qolgan mablag'larning 32,7 trln.so'm (60,8-28,1)ga ortishi "O'zbekneftgaz" AJ da jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlar umumiy hajmining 743 mln. AQSh doll. (940-197)ga ortishi, "O'zbekneftgaz" AJ to'lagan foyda solig'i miqdorining esa 231,3 mlrd.so'm (543,7-312,4)ga ortishi, "O'zbekneftgaz" AJ da foyda solig'idan imtiyozlar bo'yicha ular ixtiyorida qolgan mablag'larning 54,3 mlrd.so'm (116,4-62,1)ga ortishi kutilmoqda.

Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanilishi korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga hamda investitsion loyihalarning ijrosini samarali ta'minlashga imkon bergan.

4. Soliqlar vositasida korxonalarining investitsiya faolligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida ichki soliq nazoratini o'tkazish uslubiyotiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-sonli qarorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan.

Soliqlar vositasida korxonalarining investitsiya faolligini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya

qilish uchun moliyaviy resurslarni bo'shatishda ichki soliq nazorati (internal tax control) tizimini to'g'ri tashkil etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ichki nazorat soliq to'lovchiga soliqqa oid xatoliklar, risklar va moliyaviy sanksiyalarni oldindan aniqlash hamda bartaraf etish imkonini beradi.

Soliqlar vositasida korxonalarining investitsiya faolligini oshirishda ichki soliq nazoratining o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi: soliq risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlik (ichki nazorat korxonaning soliq majburiyatlarini to'g'ri hisoblashini ta'minlaydi, bu esa qo'shimcha soliq hisoblanishi, jarima va penya to'lash xavfini kamaytiradi), soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish (investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar soliq imtiyozlari (investitsiya soliq krediti, mol-mulk va foyda solig'i engilliklari)dan to'g'ri foydalanishini nazorat qiladi), investitsiya resurslarini bo'shatish (soliq yukini optimallashtirish va ortiqcha to'lovlarni oldini olish orqali korxonalar o'z mablag'larini (aylanma mablag'larini) ishlab chiqarishga investitsiya qilishi mumkin), korporativ soliqlarni rejalashtirishni takomillashtirish (ichki nazorat soliq yukini qonuniy yo'l bilan kamaytirish (tax planning) strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi).

Tadqiqotda korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim sharti va korxonalar moliyasini samarali boshqarishda ichki nazoratning maxsus bo'limi sifatida korporativ soliq xizmatining joriy etilishi zarurligining ta'kidlanishi, uning korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish uchun beradigan samaralarini "O'zbekneftgaz" AJ korxonalarida aprotatsiya qilish yaxshi natijalar berdi. Mazkur ishlab chiqilgan ichki soliq nazoratini o'tkazish uslubiyotini korxonalar faoliyatida qo'llash korxonaning soliq intizomiga rioya etuvchi intizomli soliq

to'lovchi sifatida soliq organlari taqdim etadigan engillik va imkoniyatlardan foydalanishni ta'minladi.

5. Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishda biznes uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini

uch yil davomida oshirilmaslikni kafolatlashga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida o'z aksini topgan.

#### 4-jadval.

### O'zbekistonda korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishda biznes uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini uch yil davomida oshirilmaslikni kafolatlash tadbirlari haqida ma'lumot\*

T/r	Ko'rsatkichlar	2024	2025	2026(r)	2028(r)	2030 (r)
1.	QQS to'lovchilari soni, ta	201 000	205 197	210 456	215 324	219 834
2.	QQS tushumlari, mlrd so'm	70 100	89 100	105 700	106 200	109 800
3	QQS stavkasi, %	12	12	12	12	12
4.	Jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining yillik o'sishi, %	12,7	14,1	13,6	12,8	12,0
5.	Iqtisodiyotda xususiy sektor ulushining yillik o'sishi, %	2,7	2,5	2,2	2,0	2,0
6.	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining yillik o'sishi, %	11,4	12,2	12,5	13,0	13,5
7.	Investitsion faollik yalpi ko'rsatkichining yillik o'sish sur'ati, %	15,5	20,8	2,7	22,8	25,0

\*O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-2030 yillarda QQS to'lovchilari soni 18834 ta (219834-201000)ga yoki 9,4 foiz (219834/201000x100-100))ga ortishi, QQS tushumlari hajmining esa 39700 (109800-70100) mlrd so'mga yoki 56,6 foiz (109800/70100x100-100)ga ortishi, QQS

stavkalari oshirilmasligining kafolatlanganligi (12 foiz darajasida qoldirilishi), jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ushbu davrda jami 65,2 foiz (12,7+14,1+13,6+12,8+12,0)ga yoki o'rtacha yillik 13,04 foiz

$((12,7+14,1+13,6+12,8+12,0)/5)$  ga ortishi, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushining o'rtacha yillik o'sishi 2,28 foiz  $((2,7+2,5+2,2+2,0+2,0)/5)$ ni tashkil etishi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining o'rtacha yiliga 12,52 foiz  $((11,4+12,2+12,5+13,0+13,5)/5)$ ga ortishi, investitsion faollik yalpi ko'rsatkichining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 21,16 foiz  $((15,5+20,8+21,7+22,8+25,0)/5)$  ni tashkil etishi kutilmoqda.

Mazkur taklifning inobatga olinishi natijasida monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoitlar yaratish vazifalari ijrosi ta'minlanishiga muhim hissa qo'shdi. 2024-2025-yillarda 2023-yilga nisbatan investitsion faollikning oshishiga, jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining o'sishiga erishildi.

**Xulosa.** 1. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning iqtisodiy platformasi va istiqboldagi soliq siyosati doirasida korxonalar investitsion faolligini soliq vositasida rag'batlantirish amaliyotini takomillashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Bu vazifaning qo'yilishi korxonalar investitsion faolligini soliq vositasida rag'batlantirish amaliyotida qator muammolarning mavjudligi, uni isloh qilish va investitsion faollikni soliq vositasida rag'batlari (imtiyozlari) orqali oshirishning samarali modellarini yaratishni qamrab oluvchi mavjud konseptual qoidalar munozaraliligi bilan bog'liq bo'lib, korxonalarda investitsion faollikni oshirishga soliq dastaklarining samarali usul va vositalaridan foydalanish masalasiga oydinlik kiritishni talab qiladi.

2. Korxonalar investitsion faolligini soliq vositasida rag'batlantirish amaliyotini boshqarish samarali tadbirlariga

yangicha yondashuv shunda namoyon bo'ladiki, unda Yangi O'zbekistonda davlat soliq siyosatining konseptual asoslari doirasida rivojlanish istiqbollari inobatga oluvchi korxonalar investitsion faolligini soliq vositasida rag'batlantirish amaliyotini kompleks, yaxlit va tizimli tarzda o'rganish va uning bosh prizmasida "bu shunchaki imtiyoz berish emas, balki natijadorlikka asoslangan, raqamlashtirilgan va maqsadli fiskal siyosat yuritish asosida imtiyozlarni aniq natijaga (KPI) bog'lash, raqamli monitoring va "investitsiyaviy soliq krediti" kabi zamonaviy dastaklarni qo'llash"ni ta'minlash yotadi.

3. Hozirgi zamon sharoitida soliq vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish amaldagi mexanizmida soliq rag'batlari quyidagi talablarga javob berishi shart: natijaga yo'naltirilganlik (*Performance-based*) imtiyozlar korxonalar tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari, eksport hajmi yoki innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi aniq ko'rsatkichlar bajarilgandagina taqdim etiladi; *tarmoqli va manzilli yondashuv* - imtiyozlar barcha uchun emas, balki iqtisodiyotning "drayver" sohalari (masalan, yashil energiya, yuqori texnologiyalar, to'qimachilik klasterlari) uchun beriladi; *shaffoflik va raqamlashtirish* - soliq imtiyozlarini qo'llash jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan va inson omilisiz, elektron hisobvara-q-fakturalar va AI (sun'iy intellekt) tahlili asosida amalga oshirilishi kerak; *muddatlilik* - har bir imtiyoz aniq amal qilish muddatiga ega bo'lib, uning samaradorligi muntazam baholab boriladi, samara bermagan imtiyozlar bekor qilinadi.

4. Soliqlar vositasida korxonalar investitsion faolligini oshirish amaldagi mexanizmini rivojlantirishning asosiy istiqbollari quyidagilardan iborat:

- soliq yukini optimallashtirish va barqarorlikni kafolatlash (asosiy soliq stavkalarini barqaror saqlash, soliq hisobotlarini soddalashtirish);

- investitsiya va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi imtiyozlar (jadallashgan amortizatsiya huquqi, investitsion soliq krediti, elektron tijorat va innovatsiyalar);

- hududiy va tarmoqlararo investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish (erkin

iqtisodiy zonalar (EIZ), hududlarni 4-5-toifaga ajratish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash);

- soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va shaffoflik (QQSni tezlashtirilgan qaytarish, elektron shakldagi hisobotlar);

- kichik va o'rta biznesni investitsiya faoliyatiga jalb qilish (aylanmadan olinadigan soliq, tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 30.12.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini jori etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli Prezident qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №PF-60-sonli Farmoni..

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №PF-60-sonli Farmoni.

4. J.H.Dunning Location and the multinational enterprise: A neglected factor/ Journal of International Business Studies. 2009. 40 (1), r.5-19

5. Масгрейв Р.А. Государственные финансы: теория и практика. Пер.с англ.6-изд. М.: Мысль, 2015.-543 с.

6. Stephen Bond, Lawrence Samuelson Capital allowances and the impact of corporation tax on investment in the UK/ 2014, №5, r.234-245..Journal Article10.1111/J.1475-5890.2014.TB00476.X

7. Stefan Van Parys, Sebastian James Are government subsidies and investment grants to enterprises higher in Belgium? Economic Review 27 Oct 2025

8. Волков Д.Б.Налоговые льготы для развития реального сектора экономики. Автореф.дисс.на соискание ученой степени к.е.н. М.:2011.-28 с.

9. Маслова Д.В. Методология налогового стимулирования экономического роста путем оптимизации распределения добавленной стоимости. Автореф.дисс.на соискание уч.степ.д.е.н. Ставропол: 2019.-58 с.

10. Стешенко Ю.А.Совершенствование налоговых инструментов стимулирования роста в отраслях экономики. Автореф.дисс.на соискание уч.степ.к.е.н. СПб.:2020.-31с.

11. Новоселов К.В. Стратегия развития экономической безопасности России в сфере регулирования бюджетных и налоговых отношений. Автореферат диссертации.на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ёшкар-Ола, 2020.-57с.

12. Toshmatov Sh. "Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari" doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.: BMA, 2008-74 b.



13. Ashurova N. "Barqaror iqtisodiy o'lishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.: TDIU, 2018.-72 b.

14. Niyazmetov I. "Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash" doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.: BMA, 2019. -74 b.

15. Zaripov X. "Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T.:TMI, 2020.- 57 b.